

# **Ekoturizm maskanida suv ustida 400 kishilik tantanalar saroyi qurilmoqda**



Termiz tumanida “Surxon FISH agroprom” MChJ tomonidan ekoturizm maskani faoliyati yo’lga qo’yilgan. Umumiyligi maydoni 6 hektarlik ko’l bo’yida joylashgan restoran, asosan baliq mahsulotlaridan tayyorlangan taomlar taklif qilinadigan maskan o’ziga xos tabiat bilan ajralib turadi.

Bugun viloyat hokimi Ulug’bek Qosimov ushbu ekoturizm maskanida bo’lib, uning faoliyati va yangidan amalga oshirilayotgan loyihibar bilan tanishdi. Hududda 400 kishilik suv ustida turli bayram, to’y va marosimlar o’tkazishga mo’ljallangan loyiha qurilishi olib borilmoqda.

Viloyat rahbari hududni yanada rivojlantirish hamda mahalliy va xorijiy sayyoohlar oqimini ko’paytirish borasida o’zining taklif va tavsiyalarini berdi.

[Surxondaryo viloyati hokimligi Matbuot xizmati](#)